

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



MILLIY G'OYA TARIXI VA NAZARIYASI O'QUV DASTURI

Bilim sohalari: 100 000 – Ta'lrim

Ta'lim sohalari: 110 000 – Ta'lrim

Ta'lim yo'nalishi: 60112100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Chirchiq – 2024

W

Fan/modul kodi MG'TN1305	O‘quv yili 2025-2026	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 5 ✓	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4 ✓	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi	60	90	150 ✓
I. Fanning mazmuni. Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarga milliy g‘oyaning vujudga kelishi, shakllanish bosqichlari va tarixiy ildizlari, g‘oyalarning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rni hamda rolini ochib berish, har bir xalq va millatning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi, taraqqiyotga intilishi va milliy yuksalishida g‘oya va mafkuralarning ahamiyati haqida ilmiy bilimlar berishdan iborat. Fanning asosiy vazifasi – jamiyatimizda mustaqil fikrash salohiyatini, milliy g‘oyani mustahkamlash, targ‘ib va tashviq qilish malakasini, har bir shaxs hamda yoshlarning hayotiy faoliyatida g‘oya va mafkuralarga oqilona munosabatni, mafkuraviy jarayonlarni to‘g‘ri anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek ularga mustaqil yondasha oladigan, zamon talablariga mos yosh kadr va mutaxassislar tarbiyalash kabilardan iborat.				
II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: <p>1-mavzu. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, kategoriyalari, qonuniyatları, metod va prinsiplari.</p> <p>O‘zbekiston mustaqilligi va mafkuraviy muammolar. Mafkuraviy muammolarning dolzarb ahamiyat kasb etishi va ularni hal etishdagi chora-tadbirlar. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fanining ta’lim tizimiga kiritilishi va uning ahamiyati. “G‘oyalar tarixi va nazariyasi” fanining predmeti va ob‘ekti. Fanning ob‘ekti - xalqimizning tarixiy va milliy merosini, qadriyat, an‘ana va maqsadlari, demokratik prinsiplari namoyon bo‘lishining umumiy va milliy xususiyatlarini o‘rganish. Fanning predmeti – g‘oya va mafkuralar bilan bog‘liq qonun va kategoriyalar, g‘oyalarning tarixiy ildizlari, xalqimizning ma’naviy merosi va qadriyatlarining shakllanishi, umuminsoniy demokratik prinsiplar, milliy mafkuraning g‘oya va tamoyillarining o‘zaro munosabati, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Fanning maqsadi - g‘oyalarning vujudga kelishi, shakllanish bosqichlari va tarixiy ildizlari, g‘oyalarning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rni hamda rolini ochib berish, har bir xalq va millatning o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi, taraqqiyotga intilishi va milliy yuksalishida g‘oya va mafkuralarning ahamiyatini tushuntirib berish. Fanning vazifalari – milliy g‘oyaning shakllanish va rivojlanish tarixi va nazariyasi bilan bog‘liq asosiy tushuncha va tamoyillar asosida yoshlар dunyoqarashini shakllantirish, ularning milliy g‘oyaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, vatanga sadoqat,</p>				

milliy g‘o‘rur va iftixor tuyg‘ularini tarbiyalash, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi asosida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini yanada yuksaltirish, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” shiori asosida yoshlarni birlashtirish va ularni yuksak g‘oyalar sari yo‘naltirish. Fanning funksiyalari: evristik, metodologik, siyosiy, amaliy, ilmiy bashorat qilish, dunyoqarashni shakllantirish va g‘oyaviy-tarbiyaviy funksiyalar.

Fan kategoriyalari, qonuniyatlar va ularning o‘ziga xosligi to‘g‘ri tushunishning ahamiyati. Fanning asosiy kategoriyalari: g‘oya, mafkura, bунyodkor va vayronkor g‘oyalar, g‘oyalar tizimi, mafkuraviy tizim, mafkuraviy immunitet. Ideal kategoriyalar tizimi. Fan qonuniyatlar tizimi. G‘oya va mafkuralarning bir-birini taqozo etish qonuni. G‘oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayoti bilan uzviy aloqadorligi qonuni. G‘oya va mafkuraning ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi qonuni. Fan metodlari - eng umumiyligi, umumiyligi va xususiyetlari. “G‘oyalar tarixi va nazariyasi” fanining prinsiplari: ob‘ektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, ijtimoiy yondashuv, milliy xususiyatlarni inobatga olish.

2-mavzu. Milliy g‘oyaning shakllanish tarixi va ularning namoyon bo‘lish xususiyatlari

Inson, jamiyat, millat va xalqlar hayotida g‘oya va mafkuralarning tutgan o‘rnini. G‘oya va mafkuralarning tarixiy ildizlari. Dastlabki g‘oyaviy qarashlar va manbalar. Urug‘-qabilachilik davridagi ilk g‘oyaviy qarashlar va ularning vazifasi.

Milliy g‘oya tarixi. Avesto milliy g‘oya shakllanishidagi muhim manba. Xalq og‘zaki ijodi namunalari, qahramonlik motivlari, milliy va umunsoniy g‘oya ko‘rinishlari. Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashlarda erkinlik, hamjihatlik, vatanparvarlik g‘oyalarining namoyon bo‘lishi. To‘maris, Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur va Ulug‘bek kabi xalq qahramonlari faoliyatida milliy g‘oyalarning ahamiyati. O‘rta asrlardagi g‘oyaviy qarashlar tarixi va xususiyatlari. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Buxoriy, Termiziylar faoliyati va ularning g‘oyaviy rivojlanishdagi ahamiyati. Ma‘rifatparvarlik va jadidchilik g‘oyalarining o‘ziga xosligi. Mustamlakachilik mafkurasi va uning salbiy oqibatlari. O‘zbekiston mustaqilligini va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari va Yangi O‘zbekiston g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.

3-mavzu. Mustaqillik va milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi

Mustaqillikning dastlabki yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamiyat g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarining o‘zgarishi. Totalitar kommunistik g‘oya va mafkuradan voz kechilishi. Jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash va ularning huquqiy asoslari. Jamiyat hayoti sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o‘rnatalishi mumkin emasligi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov va prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev asarlarida

milliy g‘oyaning nazariy va amaliy jihatdan asoslanishi. Milliy g‘oya konsepsiyalarining ishlab chiqilishi. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasining mohiyati va yo‘nalishlari.

4-mavzu: G‘oyalar tipologiyasi. Milliy g‘oyaning jamiyat hayotidagi o‘rni

G‘oyalar tipologiyasi va ularning mazmun-mohiyati. G‘oya va mafkuralarning shakllari. Mafkura va uning funksiyalari. Bunyodkor va vayronkor g‘oya hamda mafkuralar. Bunyodkor g‘oyalar – insoniyatni tinchlik va barqaror taraqqiyot sari boshlovchi kuch. Vayronkor g‘oyalar – xalqlar va davlatlarni parokanda qiluvchi buzg‘uni mafkuraviy quro.

Milliy g‘oya tipologiyasi. Milliy g‘oyaning mafkuraviy plyuralizmga asoslanishi. Milliy g‘oyaning bunyodkor g‘oya ekanligi. Uning jamiyatni jamiyat, xalqni halq, millatni millat qilishdagi o‘rni va ahamiyati. Milliy mafkurmazning bosh maqsadi va asosiy g‘oyalari. Milliy g‘oyaning umuminsoniy mazmuni, insonparvarligi, tinchliksevarligi va taraqqiyotga yetaklovchi kuch ekanligi. Mustaqillik sharoitida jamiyat g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari o‘zgarishining mamlakat taraqqiyotini ta’minlashdagi ahamiyati.

5-mavzu. Milliy g‘oyaning jamiyat hayoti sohalari bilan bog‘liqligi.

Harakatlar strategiyasi – O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi

Jamiyat hayoti sohalari tushunchasi. Milliy g‘oyaning jamiyat hayoti sohalarida aks etishi. Milliy g‘oyada iqtisidiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohalarining uzvii aloqadorligi. Fan va ta’lim sohasidagi yutuqlarni hayotga tadbiq etish. Taraqqiyotning o‘zbek modeli va O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyati. O‘zbekiston taraqqiyotida insonparvarlik g‘oyalaringin takomillashuvi jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo‘lishi. Milliy g‘oyada inson eng oliy qadriyat. Barcha islohotlar inson va uning farovon hayoti uchun olib borilishi. Insonning sha’ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini ta’minlashning huquqiy kafolatlari. Sud-huquq sohasidagi islohotlar, o‘lim jazosining bekor qilinishida insonparvarlikning namoyon bo‘lishi. Harakatlar strategiyasida jamiyat hayoti barcha sohalarining qamrab olinishi. Besh ustuvor yo‘nalish – taraqqiyot poydevori.

6-mavzu. Milliy g‘oyada inson erkinligi, huquq va manfaatlarining aks etishi. Siyosiy institutlar va mafkuralar xilma-xilligi tamoyili

Inson erkinligi, huquq va manfaatlari tushunchasining mazmun-mohiyati. Milliy g‘oyaning erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi prinsipiga asoslanishi. Milliy g‘oya barkamol avlodni tarbiyalash omili. Barkamol avlodga xos xususiyatlar.

Inson manfaatlarini ta’minlash – yuksak qadriyat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta’minlashning kafolati. Mustaqillik sharoitida milliy g‘oyani rivojlantirish, uning ma’naviy ta’sirchanligi va mafkuraviy samaradorligini oshirish jarayonida inson huquq va

erkinliklarini takomillashtirish muammolari. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish" ustuvor yo'nalishi asosida olib borilayotgan islohotlar va ularning amaliy samarasi.

Siyosiy institutlar va mafkuralar xilma-xilligi tushunchasi. Milliy g'oyaning siyosiy institutlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanishi. Siyosiy plyuralizm. Fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda mafkuraviy plyuralizmning ahamiyati.

Siyosiy partiyalar faolligini oshirish va milliy g'oyani takomillashtirish. Siyosiy institutlar, yondashuvlar xilma-xilligining jamiyat rivojiga ta'siri, uning demokratik xarakteri. Milliy g'oya va mafkura yakkahokimligiga qarshi kurashning konstitutsiyavni, huquqiy asoslari.

7-mavzu. Milliy g'oyaning umummafkuraviy jarayonlar bilan bog'liqligi, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalari

Milliy g'oya va umummafkuraviy jarayonlar tushunchasining mohiyati va o'zaro munosabati. Mafkuraviy jarayonlarning turli guruhlari va qatlamlar manfaatlari bilan bog'liqligi, uni anglash darajalari. Mafkuraviy jarayonlarning turli g'oyalar va mafkuralar bilan bog'liqligi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi va mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy kurashlar. Geosiyosat va geosiyosiy manfaatlari. Milliy g'oya mafkuraviy kurashlardagi muhim omil.

Milliy g'oyaning o'ziga xos xususiyatlari. Milliy g'oyaning millat manfaatlari va taraqqiyot yo'lini bilan bog'liqligi. Milliy g'oyani rivojlanish tushunchasi. Milliy g'oya rivojlanishining ong va tafakkur, turli xil omillar bilan bog'liqligi.

Milliy g'oyaning rivojlanish mexanizmlari – milliy ma'naviy meros, urfodat, an'ana va qadriyatlar. "Fikr – g'oya – mafkura – tizim" munosabati. Milliy g'oya va OAV. Axborotlashgan jamiyatda OAV dagi o'zgarishlar. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlar va milliy g'oya ta'sirchanligini oshirishda mafkuraning o'mni.

8-mavzu. Milliy g'oyada moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi

Moddiy va ma'naviy hayot tushunchalari. Milliy g'oyaning moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligiga asoslanishi. Moddiy ehtiyojlarning insонning ruhiy olamiga qarshi qo'yish, ularning biriga ustunlik berishning samarasiz ekanligi. Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi to'g'risida I.A.Karimovning fikrlari. Moddiy va ma'naviy uyg'unlik asosida inson, davlat va jamiyat hayotini yuksaltirish masalalari. Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlanish va liberalallashtirishning ustuvor yo'nalishlari. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi. Kambag'allikni qisqartirish sohasida olib borilayotgan islohotlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasiga 75-sessiyasidagi ma'rzasida yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati.

9-mavzu. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik- taraqqiyot omili.

O‘zbekiston ko‘pmillatlari, polietnik davlat. Millatlararo totuvlik g‘oyasining milliy g‘oyada aks etishi. Milliy g‘oyaning turli millat ilg‘or vakillari ongingin mahsuli ekanligi. Milliy madaniy markazlar faoliyatining tashkil etilishi. “Milliy bag‘rikenglik” va “Diniy bag‘rikenglik” tushunchalarining mohiyati. Xalqlar va millatlar madaniyatining hurmat qilinishi va asrab-avaylash imkoniyatining yaratilishi.

Ko‘pdinlilik, dinlararo bag‘rikenglik, vijdon erkinligi tushunchalarining mazmuni. Milliy g‘oyaning milliy va diniy separatizm, terrorchilik va ekstremizm kabilarning olidini olishdagi ahamiyati.

10-mavzu. Ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarning ko‘rinishlari, ularni oldini olishda milliy g‘oyaning o‘rni

Ma’naviy tahdid, g‘oyaviy tazyiq, mafkuraviy xuruj tushunchalarining mazmun-mohiyati. Ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarning ko‘rinishlari, niqoblanish xususiyatlari, yashirin va oshkora jihatlari. Mahalliy-hududiy va global miqyosdagi ma’naviy tahdidlar.

Yot va zararli g‘oyalar, g‘oyaviy kurash tushunchalari. Tahdidlarning ichki va tashqi yo‘nalishlari, ijtimoiy ildizlari. Diniy ekstremizm va terrorchilik, ommaviy madaniyat, demokratiya niqobidagi ma’naviy tahdidlarning xavfsizlikka tahididi. O‘zbekistonga qarshi axborot xurujlarining maqsadlari. “Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish” tamoyili. G‘oyaviy kurashda din, adabiyot, san‘at, ilm-fan va OAV imkoniyatlaridan samarali foydalanan. Jamiyatda mafkuraviy profilaktikani kuchaytirish zarurati.

11-mavzu. “Ommaviy madaniyat” tahdidi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy g‘oyaning o‘rni

“Ommaviy madaniyat” tushunchasining mazmuni. I.A.Karimov va Sh.M.Mirziyoevning “ommaviy madaniyat” to‘g‘risidagi fikrlari. “Ommaviy madaniyat”ning milliy ma’naviyatimiz, milliy meros va demokratik prinsiplarga zidligi. “Ommaviy madaniyat” eskalatsiyasining xavfi. Dunyo xalqlarini o‘zligidan begonalashtirish, yoshlarga ta’sir o‘tkazish va ularni manqurtga aylantirishdan ko‘zlangan maqsadlar.

Yoshlar va mafkuraviy immunitet tushunchalarining mazmun-mohiyati. Yoshlarga xos xususiyatlari. Yoshlarda milliy merosni hurmat qilish, tarixiy xotira, qadriyatlarni e’zozlash, qonun ustuvorligiga amal qilish fazilatlarini tarbiyalashning muhimligi. Milliy g‘oyaning yoshlarni yot g‘oyalardan himoyalashdagi o‘rni.

12-mavzu. Dunyodagi mafkuraviy kurashlar, ularning maqsad va yo‘nalishlari

Dunyodagi mafkuraviy kurashlar va ularning sabablari. Mafkuraviy maqsadlarning xilma-xilligi. Ezgu va bunyodkor mafkuralar. Yovuz va buzg‘unchi mafkuralar. Mafkuraviy kurashlarning tarixiy ko‘rinishlari va shakllari. Mafkuraviy kurashlarning turli xil siyosiy mafkuraviy yo‘nalganligi.

Dunyodagi global o‘zgarishlar. Mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan kuchli ekanligi. Tajovuzkor mafkuralarga qarshi kurashda milliy g‘oyaning o‘rni.

13-mavzu. Milliy g‘oyani ilmiy o‘rganish, o‘qitish, targ‘ib-tashviq qilishning nazariy metodologik asoslari

G‘oyaviy mafkuraviy ishlarda ilmiy usul-yondashuvlarni tanlash masalalari, bu boradagi qarashlar va munosabatlар mohiyati. Milliy g‘oyani ilmiy o‘rganish, o‘qitish, targ‘ib-tashviq qilishda falsafa faniga tayanish zarurati. Falsafiy metodlardan unumli foydalanan imkoniyatlari. Ontologiya, metodologiya, aksiologiya, praksiologiya, etika, estetika va boshqa falsafiy fanlarning metodologik mazmuni va sistemali xarakteri. Ontologiya va ontologik yondashuvning mafkuraviy ishlardagi o‘rni. Metodologiya. Milliy g‘oya va mafkuraning metodologik mazmuni. Gnoseologik yondashuv. Milliy g‘oya va mafkuraning gnoseologik mazmunini yoritish usullari, bu boradagi ilmiy yondashuv va tamoyillar. Aksiologiya va g‘oyaga aksiologik yondashuv. Praksiologiya. Milliy g‘oya va mafkuraning praksiologik masalaлari. Etika va Estetikaning g‘oyaviy-mafkuraviy ishlardagi o‘rni. Milliy g‘oya va mafkurada axloqiy-estetik masalalarni yoritish usullari.

14-mavzu. O‘zbekistonda g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqotning institutsiional tizimi

G‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot tushunchalarining mazmun-mohiyati. G‘oyaviy ta’lim-tarbiyaning ob’ekti, sub’ekti, usul-vositalari hamda inson va jamiyat hayotiga ta’sir yo‘nalishlari. Davlat va jamiyat taraqqiyotida g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqotning o‘rni va ahamiyati. O‘zbekistonda va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy ishlar, ularning tashkiliy-uslubiy asoslari va yo‘nalishlari. G‘oyaviy-mafkuraviy ishlarga mas’ul tashkilotlar: Respublika ma‘naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, g‘oyaviy ta’lim-tarbiya tizimi, ularning tuzilishi, maqsad va vazifalari. Ta’lim muassasalarining o‘rni.

G‘oyaviy mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish va boshqarishning demokratik asoslari, bu boradagi ilmiy yondashuv va tamoyillar: tizimlilik, ilmiylik, izchillik, uzlusizlik, maqsadga muvofiqlik, plyuralizm, defferensial yondashuv va boshqalar. Nazariya va amaliyot birligi masalasi. Mafkuraviy siyosat va uning amal qilish xususiyatlari. OAV, adapiyot va san‘at, fan, din, madaniy-ma’rifiy muassasalar, siyosiy tashkilotlar faoliyatining g‘oyaviy-mafkuraviy vazifalari.

15-mavzu. O‘zbekiston xalqaro mavqeini mustahkamlashda milliy g‘oyanining o‘rni

O‘zbekiston mustaqilligi va jahon hamjamiyatining to‘laqonli a‘zosi. O‘zbekiston va BMT munosabatlari. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasi (1993 yil), 50-sessiyasi (1995 yil) va uchinchi ming yillik (2000 yil) sammitlaridagi taklif va tashabbuslari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasi (19.09.2017 yil), 75-sessiyasidagi (23.09.2020

yil) nutqlari va undagi takliflar.

O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzining yuksalishida madaniyat, sport, san'at sohasida erishilgan yutuqlarning ahamiyati. "Sharq taronalari" va "Maqom" xalqaro festivallari – milliy ma'nnaviyatimiz va san'atimizning xalqaro miqyosdagi e'tirofi.

A YSESKO tomonidan Toshkent va Buxoroning Islom madaniyati poytaxtlari deb e'lon qilinishi. O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama teng huquqli aloqalari. Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashda O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsya etiladi:

1. "Milliy g'oya tarixi va nazariysi" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, kategoriyalari, qonuniyatları, metod va prinsiplari.
2. Milliy g'oyaning shakllanish tarixi va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari.
3. Mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi.
4. Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari.
5. Milliy g'oya – O'zbekiston xalqining ishonch-e'tiqodi manbai.
6. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili.
7. "Diniy bag'rikenglik va ma'rifat rezolyutsiyasi" mazmuni.
8. Komil insonni tarbiyalashda milliy g'oyaning o'mni.
9. "Ommaviy madaniyat" tahdidi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy g'oyaning o'mni.
10. O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g'oyaga ehtiyoj.
11. Mafkuraviy markazlar va mafkuraviy profilaktika chora-tadbirlari.
12. Milliy g'oyaning milliy negizlar va umumdemokratik prinsplarga asoslanishi.
13. Milliy g'oyani ilmiy o'rganish, o'qitish, targ'ib-tashviq qilishning nazariyi metodologik asoslari.
14. O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqotning institutsional tizimi.
15. O'zbekiston xalqaro mavqeini mustahkamlashda milliy g'oyaning o'mni.

Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahsil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanining nazariy asoslari. Fanning predmeti, maqsadi, vazifalari, kategoriyalari, qonuniyatlar, metod va prinsiplari.
2. Milliy g'oya va mafkuramizning asosiy g'oyalari, tamoyillari hamda uning jamiyat hayotida namoyon bo'lishi.
3. Dunyodagi va O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlarda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyati.
4. Globallashuv jarayonida o'zbek xalqi xayotiga xavf solayotgan ma'naviy-mafkuraviy va informatsion tahdidlar.
5. O'zbekistonning xalqaro nufuzi va mavqeini mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.
6. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili.
7. "Diniy bag'rikenglik va ma'rifat rezolyutsiyasi" mazmuni.
8. Komil insonni tarbiyalashda milliy g'oyaning o'mi.
9. "Ommaviy madaniyat" tahdidi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.
10. O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g'oyaga ehtiyoj.
11. Mafkuraviy markazlar va mafkuraviy profilaktika chora-tadbirlari.
12. Milliy g'oyaning milliy negizlar va umumdemokratik prinsplarga asoslanishi.
13. Milliy g'oyani ilmiy o'rganish, o'qitish, targ'ib-tashviq qilishning nazariy metodologik asoslari.
14. O'zbekistonda g'oyaviy ta'lif-tarbiya va targ'ibot-tashviqotning institutstional tizimi.
15. O'zbekiston xalqaro mavqeini mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.
16. O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi nufuzining yuksalishida madaniyat, sport, san'at sohasida erishilgan yutuqlarning ahamiyati.
17. "Sharq taronalari" va "Maqom" xalqaro festivallari – milliy ma'naviyatimiz va san'atimizning xalqaro miqyosdagi e'tirofi.
18. AYSESKO tomonidan Toshkent va Buxoroning Islom madaniyati poytaxtlari deb e'lon qilinishi.
19. O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama teng huquqli aloqalari.
20. Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlashda O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar.
21. G'oyaviy mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish va boshqarishning demokratik asoslari, bu boradagi ilmiy yondashuv va tamoyillar: tizimliif, ilmiylik, izchillik, uzluksizlik, maqsadga muvofiqlik, plyuralizm, defferensial yondashuv va boshqalar. Nazariya va amaliyot birligi masalasi.
22. Mafkuraviy siyosat va uning amal qilish xususiyatlari.
23. OAV, adabiyot va san'at, fan, din, madaniy-ma'rifiy muassasalar, siyosiy tashkilotlar faoliyatining g'oyaviy-mafkuraviy vazifalari
24. Dunyodagi mafkuraviy kurashlar va ularning sabablari. Mafkuraviy maqsadlarning xilma-xilligi.
25. Ezgu va bunyodkor mafkuralar. Yovuz va buzg'unchi mafkuralar.

3.	<p>VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>“Milliy g'oya tarixi va nazariyasi” fani orqali milliy g'oya, uning ildizlari, taraqqiyotimizdagi o'mi hamda jamiyatdagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; (<i>bilim</i>)</p> <p>“Milliy tarixi va nazariyasi” fanini o'qitish, asosiy tamoyillari va ularning jamiyat a'zolari ayniqsa, yosh avlodni tarbiya qilishdagi rolini bilish va ulardan foydalana olishi; (<i>ko'nikma</i>)</p> <p>“Milliy tarixi va nazariyasi” fanini o'qitish, dunyo mamlakatlari taraqqiyot modellari to'g'risida ma'lumotlarga va ular bo'yicha kerakli xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (<i>malaka</i>)</p>
4.	<p>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalari; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalari
5.	<p>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p>X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар. (Олий таълим муассасалари учун қўлланма). - Т.: Янги аср авлоди, 2001. 2. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар. (Изохли кўргазмали воситалар тўплами). - Т.: Янги аср авлоди, 2001. 3. Миллий истиқлол ғояси: кўргазмали воситалар. - Т.: Маънавият, 2001. 4. Назаров Н.А., Тогаев Ш.Х. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. – Чирчик: 5. Саифназаров И. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар. Услубий кўргазмали қўлланма. -Т.: ТДИУ, 2001. 6. Назаров К. Бугунги дунёнинг мафкуравий манзараси. - Т.: “Ижод дунёси”, 2002. 7. Очилдиев А. Миллий ғоя ва миллатлараро муносабатлар. - Т.: Ўзбекистон, 2004. 8. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi. - T.: Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi. 2011. 9. Яхшиликов Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя ва мафкура. – Тошкент: “Фан”, 2015.

10. Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya – taraqqiyot strategiyasi. - T.: Fan, 2017.

XI. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

4. Ўзбекистон Республикасининг “Виждан эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида” (Янги таҳтирида)ги Қонуни. – Т.: “Адолат” нашриёти 1998.

5. Каримов И.А. Маънавий юксалиш йўлида. -Т.: Маънавият, 1998.

6. Каримов И.А. Ўзбекистон: миляй истиклол, иктисад, сиёсат, мағкура. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

7. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд.- Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

8. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Axborot manbalari

<http://www.edu.uz>–O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi sayti.

<http://www.gov.uz>– O'zbekiston Respublikasi xukumati portalı.

www.pedagog.uz

www.cspl.uz

www.pedagog.uz

www.edu.uz

www.natlub.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)

www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lif resurslari portalı

7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “ ” dagi qarori bilan tasdiqlangan.

8. Fan/modul uchun ma'sul:
G.S.Raxmonova - CHDPU, “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD).

9. Taqrizchilar:
N.A. Nazarov - CHDPU, “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” kafedrasi professori.
M.A.Sobirova - Nizomiy nomidagi TDPU “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” kafedrasi professori, f.f.n.